Subject: Avtobus ta’minotchilari bilan ochiq muloqot uchrashuvi uchun NYCPSga qo‘shiling

Hurmatli NYC davlat maktablari oilalari,

Nyu-York shahar Davlat maktablarining O‘quvchilar uchun transport xizmati boshqarmasi sizlarni 2026-yil 1-dekabr, seshanba kuni soat 18:00 da **Queens Innovation Center (53-16 Northern Boulevard, Woodside, NY 11377)** manzilida bo‘lib o‘tadigan avtobus ta’minotchilari bilan ochiq muloqotga samimiy taklif etamiz.

Farzandingiz uchun har kungi transport xizmati uning maktab hayotining muhim qismidir. Ushbu avtobus ta’minotchilari bilan ochiq muloqot uchrashuvi mazkur xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan bevosita muloqot qilish, savollar berish, fikr-mulohazalaringizni bildirish va muammolaringizni bayon etish uchun imkoniyat yaratadi.

Ochiq muloqot uchrashuvi ikki qismdan iborat bo‘ladi.

- 1-qism: O‘quvchilar uchun transport xizmati boshqarmasi (OPT) so‘nggi yangiliklarni taqdim etadi hamda oilalar tomonidan oldindan yuborilgan umumiy savollar va dolzarb mavzularga javob beradi.
- 2-qism: Shaxsan tashrif buyurgan oilalar shaxsiy yoki muayyan o‘quvchiga oid masalalar bo‘yicha o‘zlarining avtobus pudratchilar vakillari bilan bevosita muloqot imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Oilalar shaxsan tashrif buyurishlari yoki onlayntarzda qatnashish mumkin. Jonli efir havolasi avtobus ta’minotchilari bilan ochiq muloqot veb-sahifasida taqdim etiladi https://www.schools.nyc.gov/school-life/transportation/transportation-overview/whats-new/bus-vendor-town-hall.

Tadbirlarni puxta rejalashtirishimizga yordam berish uchun oilalardan oldindan ro‘yxatdan o‘tishlarini so‘raymiz. Ro‘yxatdan o‘tish, savol yoki mulohaza yuborish hamda batafsil ma’lumot olish uchun avtobus ta’minotchilari bilan ochiq muloqot veb-sahifasiga tashrif buyuring https://www.schools.nyc.gov/school-life/transportation/transportation-overview/whats-new/bus-vendor-town-hall.

Boshqarmamiz o‘quvchilar uchun ishonchli transport xizmatining ahamiyati va ular oilalarning fikr-mulohazalarini yuksak qadrlaymiz. Fikr-mulohazalaringiz bilan tanishish, savollar berish va transport xizmati ta’minotchilari bilan bevosita muloqot qilish uchun sizni ushbu uchrashuvda qatnashishga taklif etamiz. Nyu-York shahar Dalat maktablarining o‘quvchilarining xavfsiz va ishonchli transport xizmatini qo‘llab-quvvatlashda biz bilan hamkorlik qilayotganingiz uchun tashakkur bildiramiz.

Sizdan intiqlik bilan xabar kutib qolamiz.

Hurmat bilan,

NYC davlat maktablari (NYC Public Schools)